



## BOSHLANG‘ICH SINFLARDA EKOLOGIK TA‘LIMNI RIVOJLANTIRISHNING O‘ZIGA XOS XUSUSIYATLARI

*Shermatova U.Sh.*

*Termiz davlat pedagogika instituti Boshlang‘ich ta‘lim metodikasi kafedrasi o‘qituvchisi*

**Tayanch so‘zlar:** boshlang‘ich ta‘lim, ekologik tushuncha, shakllantirish, integratsiya, dars, shakl, metod, vosita, muammo, takomillashtirish, ilmiy-ijodiy faoliyat, tabiiy fanlar, didaktik o‘yinlar, ekologik madaniyat.

**Ключевые слова:** начальное образование, экологическое понимание, формирование, интеграция, урок, форма, метод, средство, проблема, совершенствование, научная и творческая деятельность, естествознание, дидактические игры, экологическая культура.

**Key words:** primary education, environmental understanding, formation, integration, lesson, form, method, means, problem, improvement, scientific and creative activity, natural science, didactic games, environmental culture.

Hozirgi davrda boshlang‘ich sinf o‘quvchilarida ekologik ta‘lim-tarbiyani takomillashtirish, uning mazmun-mohiyati, ahamiyati, shuningdek, mazkur jarayonni rivojlantirishni amalga oshirilayotgan islohotlar, fan-texnika yutuqlari, ekologik ta‘limni takomillashtirish mazmunida tushuntirish muhimligini ko‘rsatadi, chunki o‘quvchilar bugungi kunda ekologik ta‘lim-tarbiya bilan bog‘liq muammolarni o‘rganish va uni echimini topish masalalarining zaruriyatini to‘g‘ri va haqqoniy anglab etishi hamda kelajakka ishonch hosil qilishi uchun ularda ekologik madaniyatni shakllantirish va boyitish muhim ahamiyat kasb etadi.

Mazkur jarayonda eng aavvalo, ekologik bilim, iqtisodiy madaniyat, xalqimiz tomonidan saqlanib kelinayotgan an‘analar, umuminsoniy qadriyatlar, milliy an‘analar, vatanga muhabbat, vatanparvarlik, insonparvarlik, o‘z-o‘zini anglash, umuminsoniy qadriyatlar, va boshqa qator asosiy tushunchalarning mazmun-mohiyatini yoritish zarur.

Ta‘lim muassasalarida ekologik ta‘limni rivojlantirish orqali o‘quvchilarda ekologik tafakkurni shakllantirish muhim ahamiyat kasb etadi. Unda asosiy



tushunchalarning mazmun-mohiyatini va ahamiyatini asosli va aniq tarzda o‘quvchilarga yoritib berish, mamlakatimizda amalga oshirilayotgan islohotlar, ularning bugungi kundagi ijobiy natijalari, yaratilayotgan yangiliklar va ularning ahamiyati, ijtimoiy-ekologik rivojlanishlar bo‘yicha ijobiy tasavvurlar shakllantirish bilan bir qatorda, kelajakka ishonch tuyg‘ularini shakllantiradi. Muxtasar qilib aytganda, ularda ekologik ta’lim-tarbiya berish orqali rivojlantiradi.

Boshlang‘ich sinflarda tabiiy fanlarni o‘qitishda ekologik ta’limni rivojlantirishda inson o‘z ehtiyojlarini qondirishi va ko‘zlagan maqsadlariga erishishi uchun chidamlilik, irodaviylik, sabr toqat, qanoatlilik, erkin fikrlilik va ongli faoliyatni boshqara olish kabilar zarur sanaladi. Buning uchun eng avvalo, u yashayotgan yurt, ya’ni vatan mustaqilligi, uning ravnaqi va ekologik ta’limni rivojlanish muhim ahamiyatga ega hisoblanadi.

Demak, tabiiy fanlarni o‘qitishda ekologik ta’limni rivojlantirish mamlakatning rivojlanishi va taraqqiy etishi bilan bog‘liq masalalar yuzasidan tushunchalar berishda “ekologik tafakkur” tushunchasining mazmun-mohiyatini asoslab berish lozim. Ekologik ta’lim-tarbiyani shakllantirishda boshlang‘ich sinf o‘quvchilarini hayotga mustaqil qadam qo‘yganlarida tabiatning “bo‘ysundiruvchi” siga emas, balki uning himoyachisiga aylanish kerak. Yoshlarni tabiatdan oqilona foydalanishga, shuningdek, ularga tabiat faqat foyda olish uchungina emas, balki go‘zallik qonunlariga ko‘ra o‘zgartirilishini tushuntirish axloqiy talablarga to‘la muvofiq keladi.

Xulosa sifatida shuni takidlash joizki, yoshlarni oilada, talim muassasalari va mahalla jamoasida ekologiya va unda sodir bo‘layotgan voqealar bilan qiziqtirish, tabiat va inson o‘rtasidagi muammolarning kelib chiqish sabablarini aniqlash, tabiiy boyliklardan oqilona foydalanish, tabiat va jamiyat o‘rtasidagi doimiy birlik, ularni bir-birlariga bog‘lovchi tabiiy hamda ijtimoiy qonunlarni o‘rgatish, hayotga tadbiiq qilish yo‘li bilan tabiatda barqarorlikni saqlashga erishish lozim.

Binobarin, boshlang‘ich sinflarda tabiiy fanlarni o‘qitishda ekologik ta’lim-tarbiyani shakllantirish masalalari o‘quvchilarning atrof-muhit bilan qanday munosabatda bo‘lishni o‘rgatish ta’lim tizimining dolzarb masalasiga aylandi. Shuningdek, unda o‘quvchilar ekologik tushunchaga ega bo‘lishi zamon talabidir. Ekologik tushuncha-bu atrof-muhit to‘g‘risida chuqur bilimga, tabiatni asrash tuyg‘usiga ega bo‘lish, o‘simlik va hayvonlarga nisbatan g‘amxo‘rlik ko‘rsatish, tabiat zaxiralaridan oqilona foydalanish, ularni ko‘paytirish borasida qayg‘urishga qaratilgan amaliy faoliyatning yuksak ko‘rsatkichidir.



Ana shu xislatlarni o'zida aks ettira olgan o'quvchi ekologik ta'lim-tarbiya egasi deb atash mumkin. Iste'moldan ortiqcha suv jo'mraklardan oqishiga yo'l qo'ymaslik, suv xavzalarini ifloslantirmaslik, axlatni duch kelgan joyga to'kmaslik, turar joylarni ozoda saqlash, ko'chat va gullarni sindirmaslik hamda ularni ekish, hayvonlarga g'amxo'rlik qilish, qushlarni parvarishlash, xonadon va xiyobonlarni gulzorga aylantirish kabi harakatlarni amalga oshirish ekologik madaniyatlikning eng oddiy ko'rinishlari hisoblanadi.

Boshlang'ich sinflarda tabiiy fanlarni o'qitishda ekologik ta'lim-tarbiyani rivojlantirish - bu insonni tabiatga qadam qo'ygan vaqtdan boshlab, butun hayoti davomida tabiatdan ongli ravishda foydalanish, xalqimizning tabiatga hurmat va e'tibor bilan qaraydigan urf-odatlarini, udumlarini tarbiyalash, tabiiy boyliklarni ko'paytirish, bog'u rog'lar, gulzorlar tashkil qilishga undash hamda uning qalbida yaxshi xislatlar uyg'otishdan iboratdir.

Boshlang'ich sinf o'quvchilarida ekologik ta'limni rivojlantirish tabiatga, atrof-muhitga mehr uyg'otish, tejamkorlik xususiyatlarini shakllantirishga qaratilgan tabiatni muhofaza qilish, uni avaylab asrash tuyg'ularini inson tafakkurida shakllantirish jarayoni tushuniladi. Shuningdek, ekologik ta'limni rivojlantirishda o'quvchilarga tabiat boyliklarini tejab-tergashga, tabiatni muhofaza qilishga da'vat etadi. ekologik ta'lim-tarbiyaning asosiy maqsadi jamiyat kishilarini ekologik jihatdan savodxonligini, madaniyatini oshirish, tabiatni muhofaza qilish, ozoda-toza saqlash, hayvonot olamiga, o'simliklarga mehr uyg'otish orqali tabiat ne'matlarini parvarishlashdan iborat bo'ladi.

Bugungi ekologik ta'lim tizimida dolzarb muammo bu mamlakatda uzluksiz ekologik ta'lim modeliga amal qilish natijasida yagona tabiat va jamiyatdagi o'zaro uyg'unlik, birlik imkoniyatlarini shakllantirishdir. Uzluksiz va xavfsiz ekologik ta'lim tizimi orqali jamiyatni shakllantirishga erishish uchun uzluksiz ta'lim tizimining boshlang'ich bo'g'inida tabiiy fanlarni o'qitishda zamonaviy ta'lim texnologiyalariga asoslangan metodlarni ishlab chiqish zarur.

Ilmiy izlanishlarni o'rganish shuni ko'rsatdiki, boshlang'ich ta'limda tabiiy fanlarni o'qitishda ekologiyaga oid manbalar deyarli atroflicha yo'lga qo'yilmagan. Ta'kidlash joizki, ekologik ta'lim usullarini o'rganishda asosiy vazifa o'qituvchining bilimi, mahorati va uning ongida shakllangan ekologik madaniyatning yuksakligiga bog'liq deb ta'kidlaydi.

Unda o'qitish metodi orqali o'qituvchi va o'quvchi harakatlari yordamida ma'lum bir fanni o'rganadi, o'qitish metodlari aynan dars jarayonida qo'llaniladi va zamonaviy o'qitish vositalari bilan uzviy bog'lik bo'ladi. Turli o'qitish metodlaridan foydalanishning asosiy maqsadi bilimni o'quvchilarga etkazishdan iborat bo'ladi.



Shuningdek, bugungi kunda tabiiy fanlarni o'qitishda bir qator zamonaviy o'qitish metodlari mavjud bo'lib, bu metodlarni qo'llash aslida juda murakkab va o'z navbatida, ular oddiy ham bo'lishi mumkin. Chunki tabiiy fanlar boshqa fanlardan farqli o'laroq, o'z metodlarini tabiat jismlari yoki ularni o'rganishda foydalanadi.

Boshlang'ich sinflarda tabiiy fanlarni o'qitishda ekologik ta'limni rivojlantirish jarayonida quyidagilarni nazarda tutish lozim:

ekologik ta'lim-tarbiyaga oid tushunchalarning o'ziga xos xususiyatlari mavjud ekanligi;

darslarni tashkil qilishda zamonaviy ta'lim texnologiyalaridan foydalanish; fanlararo integratsiya ekologik ta'lim-tarbiya asosi ekanligi;

muammoli vaziyat yaratish;

test sinovlarini o'tkazish;

ekologik ta'lim-tarbiya mazmunida mashq bajarish va masalalar echish, test, diktant, insho va bayon yozish;

ekologik ta'lim mazmunida qiziqarli o'yinlar: krossvord, rebus va ijodiy topshiriqlarni bajarish;

darslik bilan ishlash;

qo'shimcha adabiyotlardan foydalanish.

Darhaqiqat, tirik mavjudotlarni o'rab olgan narsa atrof-muhit. Ana shu atrof-muhitni toza saqlab, uni muhofaza qilish har bir insonning burchidir. Agar biz tabiat oldidagi burchimizni unutsak, tabiatga ziyon etkazamiz. Tabiatdan foydalanishda odamlarning yo'l qo'ygan xatoliklari, albatta, o'z javobini qaytaradi. Ya'ni son-sanoqsiz ekologik muammolarni yuzaga keltiradi. Bu muammolar oldida har bir inson o'z javobgarligini his qilgan holda tabiatni asrab-avaylashi lozim.

Tabiat bilan inson o'rtasidagi munosabatlarning buzilishi ekologik muammolarni yuzaga keltiradi. Unda inson tabiatga ziyon etkazsa, uni muhofaza qilmasa, tabiatda ekologik muvozanat buziladi. Unda o'quvchilarda ekologik ta'lim-tarbiyaga oid bilim, ko'nikma, malaka va kompetentsiyalarni shakllantirish, o'quvchilarda tirik mavjudotlarga zarar etkazmaslik, o'simlik va hayvonlarni nobud qilmaslik, tabiat yaratgan narsani yo'q qilishga haqqimiz yo'qligini tushuntirish lozim.

Boshlang'ich sinf o'quvchilarida ekologik ta'limni rivojlantirishda kognitiv harakatlarni takomillashtirish, motivatsiya va tabiatga qiziqish hamda ijodiy faoliyat orqali ularning shaxsiy fazilatlarini shakllantiriladi. Suu o'rinda tabiiy fanlar tevarak olamning tuzilishi va tabiat xilma-xilligi haqidagi bilimlarni beradi va ilmiy dunyoqarashning shakllanishiga zamin yaratadi. Boshlang'ich



sinf o'quvchilarida mazmunidagi amaliy ishlar bilan shug'ullanish qay darajada qiziqarli va tarbiyaviy ahamiyatga ega ekanligi bilan izohlanadi.

#### Adabiyotlar:

1. Ашурова Н. Экологическое воспитание учащихся 3 - 4 классов сельских школ: Автореферат дис... канд. пед. наук. - Ташкент, 1993. -18 с.
2. Valiyeva Z.O'quvchi shaxsini axloqiy shakllantirishda ekologik tarbiya // Uzluksiz ta'lim va tarbiya muammolari.-Tashkent:TDPI, 1993. - B.27-31.
3. Isaqulova N.J. O'quvchilarga ekologik tarbiya berish nazariyasi va amaliyoti. Monografiya. -T.: Fan, 2011. -140 b.
4. Ziyomammedov B. Ekologiya va ma'naviyat.- Toshkent. Mehnat, 1997. - 104 b.
5. Karimov Yu. Atrof-muhitni ehtiyot qilaylik// O'zbekiston ekologik xabarnomasi. -1997. - 5-6 sonlar. - Toshkent, 2004. -112 b.
6. Nishonboyeva M.G. Biologiya darslarida ekologik tarbiya. - Toshkent: O'qituvchi, 1992. -104 b.
7. Norbutayev Kh.B. The formation of ecological thought of pupils in teaching of biology in connection with natural sciences in the process of the lesson. European Journal of Research and Reflection in Educational Sciences, 8 (3) Part II, 2020.-P. 134-138.
8. Turdiqulov E.O., Musaeva M. Tomchi suvda hayot jilvasi. -Toshkent: Ma'naviyat, 2001. - 47 b.
9. Tilovov T. Ekologiyaning dolzarb muammolari.- Qarshi: Nasaf, 2003. -147 b.

#### РЕЗЮМЕ

Mazkur maqolada boshlang'ich sinflarda tabiiy fanlarni o'qitishda ekologik ta'limni rivojlantirish mazmuni, shakl, metod va vositalarini uyg'unlashtirish, darslarni tashkil etish orqali ularning ekologik madaniyatini takomillashtirish, tabiat go'zalligini his qilish, uni asrash tuyg'ularini shakllantirish jihatlarini yoritilgan.

#### РЕЗЮМЕ

В данной статье рассматриваются содержание, форма, методы и средства развития экологического образования при преподавании естественных наук в начальных классах, аспекты повышения их экологической культуры путем организации уроков, ощущения красоты природы и формирования чувства ее сохранения. обсуждаются в этой статье.

#### SUMMARY

This article discusses the content, form, methods and means of developing environmental education when teaching natural sciences in primary grades, aspects of increasing their environmental culture by organizing lessons, feeling the beauty of nature and developing a sense of its conservation. are discussed in this article.